O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3656-1
2026 - yil 01 - Avgust

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Mikromoliya tashkiloti va bank faoliyatini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va 2026-yil 27-martdagi O‘RQ–1126-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 10-iyuldagi 14/7-son qarori (ro‘yxat raqami 3656, 2025-yil 8-avgust) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.08.2025-y., 10/25/3656/0712-son) bilan tasdiqlangan Mikromoliya tashkiloti va bank faoliyatini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi
2026-yil 7-iyul
20/2-son

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2026-yil
7-iyuldagi 20/2-son qaroriga
ILOVA

Mikromoliya tashkiloti va bank faoliyatini oʻzgartirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom mikromoliya tashkilotlari va banklar (bundan buyon matnda kredit tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatini oʻzgartirishning oʻziga xos xususiyatlarini belgilaydi.”.

2. 1 va 2-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Quyidagi kredit tashkilotlari oʻz faoliyatini oʻzgartirishi mumkin:

mikromoliya tashkiloti – mikromoliya banki faoliyatiga;

mikromoliya banki – bank faoliyatiga;

bank – mikromoliya banki faoliyatiga;

mikromoliya banki – mikromoliya tashkiloti faoliyatiga;

mikromoliya tashkiloti – faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga;

faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki – faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga;

faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank – faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga;

faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki – mikromoliya tashkiloti faoliyatiga;

bank – faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga.

2. Mazkur Nizomga muvofiq oʻz faoliyatini oʻzgartirish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) murojaat etgan kredit tashkiloti ariza beruvchi hisoblanadi.

Mazkur Nizomga muvofiq taqdim etilgan arizalarda ariza beruvchining elektron pochta manzilining koʻrsatilishi uning qabul qilingan qaror toʻgʻrisidagi xabarnomani axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda olishga yoki

elektron shaklda qoʻshimcha hujjat va axborotni soʻrab olinishiga boʻlgan roziligidir.”.

3. 3-banddagi “16, 19, 21, 75^3 va 75^4-moddalarida” degan soʻzlar “16, 19, 20, 21, 75^3 va 75^4-moddalarida” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

4. 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Kredit tashkilotining faoliyatini oʻzgartirish uchun ariza beruvchidan quyidagi miqdorlarda yigʻim va (yoki) davlat boji undiriladi:

mikromoliya bankini tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish toʻgʻrisidagi arizani koʻrib chiqish uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida yigʻim;

bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya va (yoki) islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya (bundan buyon matnda bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) deb yuritiladi) berilganligi uchun mikromoliya banki ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida davlat boji;

bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish uchun ushbu bandning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan yigʻim summasining yarmi.

Bunda mazkur bandning uchinchi va toʻrtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan davlat boji va yigʻimlar berilgan yoki qayta rasmiylashtirilgan har bir litsenziya turi uchun alohida undiriladi.”.

5. 2-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2-bob. Mikromoliya tashkiloti faoliyatini mikromoliya banki faoliyati yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish”.

6. 6–8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Mikromoliya tashkiloti oʻz faoliyatini mikromoliya banki faoliyati yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish uchun aksiyadorlik jamiyati tashkiliy-huquqiy shakliga ega boʻlishi kerak.

7. Mikromoliya tashkiloti faoliyatini mikromoliya banki faoliyati yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish orqali mikromoliya bankini tashkil etish bank faoliyatiga ruxsat berish shartlariga asosan quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

mikromoliya bankini tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish;

bir vaqtning oʻzida bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) bergan holda mikromoliya bankini davlat roʻyxatidan oʻtkazish.

8. Mikromoliya bankini tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun ariza beruvchi mikromoliya banki yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya bankini tashkil etish toʻgʻrisida qaror qabul qilgan kundan eʼtiboran oʻn ish kuni ichida Markaziy bankka quyidagilarni ikki nusxada ilova qilgan holda mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ariza taqdim etadi:

1) aksiyadorning (aksiyadorlarning) mikromoliya tashkiloti faoliyatini mikromoliya banki faoliyati yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish orqali mikromoliya bankini tashkil etish toʻgʻrisidagi qarori;

2) mikromoliya banki aksiyadori (aksiyadorlari) tomonidan tasdiqlangan mikromoliya banki ustavi;

3) Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari toʻgʻrisidagi nizomning (roʻyxat raqami 3252, 2020-yil 30-iyun):

43-bandida koʻrsatilgan hal qiluvchi egalikka ega boʻlgan har bir bevosita va bilvosita egalik qiluvchi, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdor toʻgʻrisidagi axborot. Hal qiluvchi egalikka ega boʻlgan shaxslar mavjud boʻlmagan taqdirda, bankning ustav kapitalida eng koʻp ulushlarga ega boʻlgan, umumiy ulushi kamida ellik foizni tashkil etadigan bevosita va bilvosita egalik qiluvchilar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar toʻgʻrisidagi axborot;

107-bandi 2 – 10-kichik bandlarida koʻrsatilgan mikromoliya bankining kuzatuv kengashi va boshqaruvi aʼzolari toʻgʻrisida hujjatlar;

2-ilovasiga muvofiq shaklda mikromoliya banki aksiyadorlarining roʻyxati;

3-ilovasiga muvofiq mikromoliya banki faoliyatining strategiyasini, yoʻnalishlarini, koʻlamini, moliyaviy istiqbollarini va boshqa maʼlumotlarni koʻzda tutuvchi bankning keyingi uch yilga moʻljallangan biznes-rejasi;

4) aksiyador boʻlgan yuridik shaxsning auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan oxirgi uch yil uchun moliyaviy hisobotlari;

5) mikromoliya bankining ustav kapitalini toʻldirish uchun kiritiladigan mablagʻlarning manbalari toʻgʻrisidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan axborot;

6) mikromoliya bankining tashkiliy tuzilmasi;

7) mikromoliya bankining ichki audit xizmati toʻgʻrisidagi nizom loyihasi;

8) keyinchalik mikromoliya bankining kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim boʻlgan, mikromoliya bankining kredit (moliyalashtirish), investitsiya va emissiya siyosati loyihalarining, shuningdek tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat siyosati loyihalarining koʻchirma nusxalari.”.

7. Quyidagi mazmundagi 8^1-band bilan toʻldirilsin:

“8^1. Mikromoliya tashkiloti faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish uchun ariza taqdim etilgan taqdirda, ushbu Nizomning 8-bandida koʻrsatilgan hujjatlarga qoʻshimcha ravishda quyidagi hujjatlar ikki nusxada taqdim etiladi:

1) mikromoliya bankining islomiy moliya kengashi, islomiy moliya masalalari boʻyicha maxsus boʻlinmasi va islomiy moliya boʻyicha ichki auditi toʻgʻrisidagi nizomlari loyihalari;

2) Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari toʻgʻrisidagi nizomning (roʻyxat raqami 3252, 2020-yil 30-iyun):

20^4-bandida keltirilgan ma’lumotlarni oʻz ichiga olgan islomiy moliya standartlariga muvofiqlik siyosati loyihasi;

107-bandi 2 – 10-kichik bandlarida koʻrsatilgan, mikromoliya bankining islomiy moliya kengashi aʼzolari toʻgʻrisidagi hujjatlar.”.

8. 10-banddagi “mazkur Nizomning 8 va 9-bandlarida” degan soʻzlar “mazkur Nizomning 8 – 9-bandlarida” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

9. 2-bobning 2-paragrafi nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2-§. Mikromoliya bankini davlat roʻyxatidan oʻtkazish va bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) berish”.

10. 11-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Mikromoliya bankini davlat roʻyxatidan oʻtkazish va bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) olish uchun ariza beruvchi mikromoliya bankini tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olgan kundan eʼtiboran olti oydan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagilarni ikki nusxada ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:”;

quyidagi mazmundagi 3^1 va 3^2-kichik bandlar bilan toʻldirilsin:

“3^1) nogironligi boʻlgan shaxslar uchun mikromoliya banki binolarida shaharsozlik normalari va qoidalarida belgilangan talablarga muvofiq qulay shart-sharoitlar yaratilganligi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining xulosasini;

3^2) agar ariza bir vaqtning oʻzida bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya va islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi

litsenziya berish uchun taqdim etilgan boʻlsa:

mikromoliya bankining islomiy bank faoliyatiga masʼul boʻlgan rahbar xodimi haqida Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari toʻgʻrisidagi nizomning (roʻyxat raqami 3252, 2020-yil 30-iyun) 107-bandi 2 – 10-kichik bandlarida koʻrsatilgan maʼlumotlarni;

islomiy bank faoliyati doirasida amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar boʻyicha buxgalteriya hisobini alohida yuritish imkoniyati yaratilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni;”.

11. 12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Markaziy bank tomonidan mikromoliya bankini davlat roʻyxatidan oʻtkazish va bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) berish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan taqdirda, mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran besh ish kuni ichida mazkur qarorni ilova qilgan holda, Markaziy bank mikromoliya tashkiloti faoliyati mikromoliya banki faoliyati yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirilayotganligi munosabati bilan mikromoliya tashkilotini Tadbirkorlik subyektlarining yagona davlat reyestridan chiqarish toʻgʻrisida davlat xizmatlari markaziga iltimosnoma kiritadi.”.

12. 13-bandning toʻrtinchi va beshinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registriga mikromoliya tashkiloti faoliyati mikromoliya banki faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirilganligi bilan bogʻliq oʻzgartirishlarni kiritadi;

ariza beruvchiga bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) beradi.”.

13. 3-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3-bob. Mikromoliya banki faoliyatini bank faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga oʻzgartirish”.

14. 14-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish.”.

15. Quyidagi mazmundagi 14^1-band bilan toʻldirilsin:

“14^1. Oʻz faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga oʻzgartirishga faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi

mikromoliya banki haqli.”.

16. 15-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Mikromoliya banki faoliyatini bank faoliyatiga oʻzgartirishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun ariza beruvchi aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan faoliyatni oʻzgartirish toʻgʻrisidagi qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran oʻn ish kuni ichida Markaziy bankka quyidagilarni ilova qilgan holda mikromoliya banki faoliyatini bank faoliyatiga oʻzgartirishga doir dastlabki ruxsatnomani berish toʻgʻrisida mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi arizani taqdim etadi:”;

3-kichik bandning ikkinchi xatboshisidagi “43-bandi 1 – 4 va 6-kichik bandlarida koʻrsatilgan” degan soʻzlar “43-bandida koʻrsatilgan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

8-kichik band “kredit” degan soʻzdan keyin “(moliyalashtirish)” degan soʻz bilan toʻldirilsin.

17. Quyidagi mazmundagi 15^1-band bilan toʻldirilsin:

“15^1. Oʻz faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga oʻzgartirish uchun faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki Markaziy bankka mazkur Nizomning 15-bandida koʻrsatilgan hujjatlarga qoʻshimcha ravishda quyidagilarni taqdim etadi:

bankning islomiy moliya kengashi, islomiy moliya masalalari boʻyicha maxsus boʻlinmasi va islomiy moliya boʻyicha ichki auditi toʻgʻrisidagi nizomlari loyihalari;

islomiy moliya standartlariga muvofiqlik siyosati loyihasi;

bankning islomiy moliya kengashi aʼzolari haqida Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari toʻgʻrisidagi nizomning (roʻyxat raqami 3252, 2020-yil 30-iyun) 107-bandi 2 – 10-kichik bandlarida koʻrsatilgan maʼlumotlar.”.

18. 16-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Mikromoliya banki faoliyatini bank faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga oʻzgartirishda uning ustav kapitalida chet el banki ishtirok etgan taqdirda mazkur Nizomning 15-bandida koʻrsatilgan hujjatlarga qoʻshimcha ravishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:”.

19. 3-bobning 2-paragrafi nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2-§. Mikromoliya banki faoliyatini bank faoliyatiga oʻzgartirish uchun unga berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta

rasmiylashtirish”.

20. 17-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“17. Mikromoliya banki faoliyatini bank faoliyatiga oʻzgartirish uchun unga berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi mikromoliya banki faoliyatini bank faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga oʻzgartirishga doir dastlabki ruxsatnomani olganidan keyin olti oydan kechiktirmay, Markaziy bankka quyidagilarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:”;

5-kichik banddagi “mazkur Nizomning 15 va 16-bandlari” degan soʻzlar “mazkur Nizomning 15 – 16-bandlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

21. 18-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“18. Markaziy bank tomonidan mikromoliya banki faoliyatini bank faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga oʻzgartirish uchun unga berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan taqdirda, Markaziy bank Banklarning davlat reyestriga mikromoliya banki faoliyati bank faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyati faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatiga oʻzgartirilganligi toʻgʻrisidagi tegishli yozuvni kiritadi, shuningdek berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtiradi.”.

22. 4-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4-bob. Bank faoliyatini mikromoliya banki faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish”.

23. 19-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. Bank faoliyatini mikromoliya banki faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish bankka berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi.”.

24. 20-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“20. Bankka berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan bank faoliyatini mikromoliya banki faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran oʻn ish kuni ichida Markaziy bankka quyidagilarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:”;

1-kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1) bank aksiyadorining (aksiyadorlarining) bank faoliyatini mikromoliya banki faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyatini faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirish toʻgʻrisidagi qarorini;”;

3-kichik bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“107-bandi 2 – 10-kichik bandlarida koʻrsatilgan mikromoliya bankining kuzatuv kengashi va boshqaruvi aʼzolari, bankning islomiy moliya kengashi aʼzolari – islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki uchun, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari toʻgʻrisidagi hujjatlarni;”.

25. 21-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“21. Markaziy bank tomonidan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan taqdirda, Markaziy bank Banklarning davlat reyestriga bank faoliyati mikromoliya banki faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank faoliyati faqat islomiy banki faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga oʻzgartirilganligi toʻgʻrisidagi tegishli yozuvni kiritadi, shuningdek berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtiradi.”.

26. 5-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5-bob. Mikromoliya banki faoliyatini yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini mikromoliya tashkiloti faoliyatiga oʻzgartirish”.

27. 22-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“22. Mikromoliya banki faoliyatini yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini mikromoliya tashkiloti faoliyatiga oʻzgartirishga mikromoliya banki yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki tomonidan jalb etilgan omonatlar (depozitlar) toʻliq qaytarilgandan va (yoki) omonatlarga (depozitlarga) kiritilgan pul mablagʻlarini qaytarish boʻyicha majburiyatlar boshqa bankka oʻtkazilganidan keyin yoʻl qoʻyiladi.”.

28. 23-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“23. Mikromoliya banki faoliyatini yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini mikromoliya tashkiloti faoliyatiga oʻzgartirish uchun ariza beruvchi mikromoliya banki faoliyatini yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini mikromoliya tashkiloti faoliyatiga oʻzgartirish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran oʻn ish kuni ichida Markaziy bankka elektron platforma orqali quyidagilarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:”.

29. 24-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“24. Mikromoliya banki faoliyatini yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini mikromoliya tashkiloti faoliyatiga oʻzgartirishda uning ustav fondida (ustav kapitalida) Oʻzbekiston Respublikasining norezidenti ishtirok etganda, mazkur Nizomning 23-bandida koʻrsatilgan hujjatlarga qoʻshimcha ravishda quyidagilar taqdim etiladi:”.

30. 25 – 27-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“25. Mikromoliya banki faoliyatini yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini mikromoliya tashkiloti faoliyatiga oʻzgartirish uchun taqdim etilgan arizani koʻrib chiqqanlik uchun yigʻim undirilmaydi.

26. Markaziy bank tomonidan mikromoliya banki faoliyatini yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatini mikromoliya tashkiloti faoliyatiga oʻzgartirishga rozilik berish toʻgʻrisidagi qaror qabul qilingan taqdirda, Markaziy bank mikromoliya bankiga berilgan bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) chaqirib oladi.

27. Mikromoliya banki mikromoliya bankining faoliyatini yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki islomiy mikromoliya bankining faoliyatini mikromoliya tashkiloti faoliyatiga oʻzgartirishga rozilik berish toʻgʻrisidagi Markaziy bankning qarori asosida qayta roʻyxatdan oʻtish uchun qonunchilikda nazarda tutilgan hujjatlarni davlat xizmatlari markaziga taqdim etishi lozim.”.

31. 29-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“29. Kredit tashkilotlarining faoliyatini oʻzgartirishga doir nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.”.